

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi
Muqimiy nomli Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti
Pedagogika psixologiyata'lim yo'nalishi
2 bosqich talabasi

BOLTAXO'JAYEVA MAMLAKATNING

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

fanidan tayyorlagan

R E F E R A T I

MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASI VA TARBIYANING
HOZIRGI DAVRDAGI AHVOLI

Oqituvchi: **Sultonov Sh.**

Qo'qon 2011y

Reja:

1. Markaziy Osiyoda ma'rifatparvarlik g'oyalari va xalq pedagogikasi.
2. Xalq pedagogikasi konsepsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xalq pedagogikasida oila, bolalar va ota-onalar muammolari.
4. Xalq pedagogikasi amalda.

Markaziy Osiyoda ma'rifatparvarlik g'oyalari va xalq pedagogikasi

Xalq pedagogikasi – xalqning umumiy ma'naviy madaniyatini tashkil qiluvchi va ajralmas qismidir. Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiyning “Rus xalqida tarbiya xalqning o'zi qancha vaqtdan beri mavjud bo'lsa shuncha paytdan beri mavjuddir” deb aytgan gapi to'laligicha boshqa xalqlarga ham tegishlidir. Shu bilan birga xalq pedagogikasi uzoq qadim zamonda yuzaga kelgan, ular tarixiy ilmiy pedagogikadan ilgari bo'lgan va uning ertangi shakllariga ta'sir ko'rsatgan deb hisoblaydilar. Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik ilmlari rivojlanishi tarixini tahlil qilib o'rganib chiqish pedagogikaning birinchi rasmiy belgilari xalq hayoti, xalq pedagogik madaniyatining bevosita ta'siri ostida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Xalq pedagogikasi umuman xalqning orzu-umidlarini, uning o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o'qitish haqida tasavvurlarni ifoda etadi. Al Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Umar Hayyom, Sa'diy, Navoiy, Avloniy va boshqa ma'rifatparvarlarning meroslarini tahlil qilish, ularning tarbiya haqidagi umuman g'oyalari, xususan oilaviy tarbiya haqidagi g'oyalari. Xalq pedagogikasi tarixidagi ifoda etilgan g'oyalar va fikrlar bilan uzviy bog'lanib ketganligini ko'rsatadi: maqollar, matallar, ertaklar, rivoyat va afsonalarda. Ijtimoiy - pedagogik nuqtai-nazardan Farobiyning psixologiya bo'yicha, etika va estetika bo'yicha asarlari katta qiziqishga ega, insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qarab, Farobiy shaxsning ma'naviylik sifatleri ijtimoiy muhit va tarbiya ta'siri ostida yuzaga keladi deb hisoblaydi. “Inson – deb yozadi – u eng boshidan boshlab tabiatan yaxshi yoki yomon bo'lib, xuddi shunday u tug'ma to'quvchi yoki yozuvchi bo'lib tug'ulmaydi” Farobiy, Ibn Sino va Beruniy ijtimoiy - pedagogik qarashlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sinoning pedagogik dunyoqarashlari uning ko'plab asarlarida o'z aksini topgan. Ma'naviy tarbiya haqida gapirar ekan Ibn Sino insonda xaqgo'ylik, adolatlilik, halollik kabi sifatlarni yuksak baholaydi va “xalqning ma'naviylik xususiyatlari va adolatlilikka chorlaydigan necha asrlik an'analarni hisobga olish kerak. Chunki adolatlilik – insonning ishlari eng yaxshi bezagidir” deb maslahat beradi. Beruniy asarlarida tarbiya haqida ko'plab ajoyib

fikrlar aytilgan. “O’tgan avlodlar xotiralari” (“xronologiya”) tekshirishlarida olim-ensiklopedist turli xalqlar va davrlar kalendar sistemalarini ta’riflari bilan bir qatorda haqiqat va yolg’on, yaxshi va yomon, kamtarlik va kekkayish, bilimlilik va nodonlik, ya’ni, ma’naviylik muamolarini o’rganadi. O’rta asrning yorqin mutafakkirlaridan biri Rudakiy maqol va rivoyatlar ko’rinishidagi ko’plab poetik asarlari xalq pedagogikasini boyitib xalq og’zaki ijodiyoti durdonalari qatoriga kiradi. “U inson aqlining tubi – bu bilimdir” va “Dunyoda bilim kabi muhim meva yo’qdir deb aytadi”.

O’rta asr ijtimoiy pedagogik meroslari haqida gapirganda, Nosir Xisravning (1004-1088) “Ma’rifat kitobi” va “Baxt haqida”gi kitobning muallifi, shoir, yozuvchi va faylasuf haqida gapirib o’tmasa bo’lmaydi. “Ma’rifat kitobi”da “O’z-o’zini anglash”, “Yaxshi va yomon sifatleri” boblari bor, ular o’ziga xos o’zini tarbiyalash dasturi hisoblanadi. Muallif insonni to’g’ri yarbiyalashga halaqit qiladigan yettita (yomonlik) to’siqlarini aytadi: takabburlik, ayyorlik, berahmlik, ochko’zlik, g’azab, g’araz, shaxvatparastlik. U o’zining 7 ta “yaramas do’stlerini esdan chiqarishni” maslahat beradi, ularning o’rniga esa boshqalarini - (ulkan) yuksak, oliyjanob ular uchun kamtarlik. Halollik, sabr-toqat, oddiylik, shukronalik, sahiylik va mehribonlik asosiy hisoblanganlarini topish kerak - dedi. U nasihatlarini shunday yakunlaydi: “Bundan keyin ishonchli do’stlar bilan bo’lgan, ochko’z dushmanlardan bir umrga ajralgin.” XI-XII asrlarda xususan pedagogik talqinlar ham paydo bo’ladi, ular Markaziy Osiyo va Qozog’iston xalqlari pedagogik madaniyati rivojlanishi uchun katta ta’sir ko’rsatgan. Burxoniddin Zarshudni “O’quvchiga bilim olish yo’lidagi nasihatleri” o’ziga xos pedagogika darsligida o’qitish jarayonini tashkil etish bo’yicha tavsiyalar beradi, “Bilimga intilish”, - deb yozadi olim har bir musulmonlar uchun zarur majburiyat hisoblanadi”.

O’zbek adabiyoti asoschisi hisoblangan mutafakkir taraqqiyparvar arbob A.Navoiy (1441-1501) ning pedagogik g’oyalari ahamiyati juda katta bo’ldi. O’z xalqini chuqur sevgan demokratik va insonparvarlik g’oyalari insonga muhabbat, halollik, adolatlilik, yorqin kelajakka ishonchi haqidagi xalq hikmatli so’zlari,

rivoyatlari bilan bog'lanib ketadi, xalq hatto o'zining buyuk olimi haqida rivoyat, afsonalar yaratib, xalq poyetik ijodiyotini shakllantiruvchisi sifatida uning obrazini abadiylashtiradilar. Mutafakkir olimlarning, shoirlarning ko'plab nasihatlari xalqning turmushi hayot tajribalari asosida ishlab chiqilgan hikmatli so'zlari bilan juda ham aniq mos keladi: "Qiyshiq o'tirganda ham to'g'ri gapirish kerak", "Yolg'on gapirib yashagandan ko'ra, to'g'ri gapirib o'lgan afzal", "Agarda sen har doim to'g'ri gapirib kelgan bo'lsang keyin ham senga ishonadilar", "Birinchi bor yolg'on gapirishdan o'zingni saqla, shunda keyingi yolg'onlarda seni fosh etishlaridan qo'rqmaysan" va shu kabilar. Do'stlik haqidagi olim va shoirlarning fikrlari xalq hikmatli so'zlari bilan mos keladi. Rudakiy dunyodagi eng katta g'am bu yaxshi do'stdan ajralish deb hisoblaydi "Agarda do'stlaring mingta bo'lsa bu kam deb hisobla", (xalq nikmatli so'zlari), "Yigit kishi uchun ikkita do'st ham kam". Do'st deb bilishdan oldin sen uni sinab ko'r xalqda shunday deydilar, do'st boshga tashvish tushganda, mard esa jangda sinaladi, burch esa halollik bilan. Hisrav "do'st bo'lish yaxshi ish, do'stlikka sodiq bo'lish esa buyuk ishdir" deb hisoblaydi. Xalqda "hazina izlagandan ko'ra do'stlikni saqlash yaxshiroqdir" -deyuladi. Sheroziy "yaxshi do'st aybingni yuzingga aytadi, yomon do'st ularni boshqalarga aytadi" deb eslatadi. Xalqda «Tanbeh berish do'stlarning sovg'asi» do'sting aytgan hamma gaplar yahshilikdir.

Hisrav «Munofiq, kekkaygan do'stdan ko'ra senga sodiq itni afzal ko'r» deb maslahat beradi. (Do'stning ikkiyuzlamaligini davolab bo'lmas kasalikdir», «Sen ohirgi burda noningni bo'lishib yeganni esdan chiqargan do'st o'lsin») va shu kabilar.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo Xalqlarining pedagogik nuqtayi nazarlari boshqa Xalqlarda bo'lgani kabi uzoq o'tmishda yzaga kelgan. Tarbiya haqidagi xalq donishmantligi ham Xalqning ommaviy tarbiya, ko'p asrlik pedagogik ma'daniyati va tajribalari ifodasi hisoblanadi.

2. Xalq pedagogikasi konsepsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Xalq pedagogikasi muammolarini ilmiy tekshirishlar tarixini urganib chiqish tarbiyalashdagi xalq tajribasini ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida o'rganish hamma tarixiy rivojlanish bosqichlaridan o'tish va hozirgi davrning pedagoglari ilmiy qiziqishlari doirasiga kirib kelganligini ko'rsatadi. Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (XVII asr) «Onalar maktabi» g'oyasini aynan oilaviy tarbiya tajribasiga tayanib asoslab berdi. Mashhur shveysariyalik pedagog I.G.Pistolossi ham o'zining «Onalar uchun kitobini» shveysariya Xalq pedagogikasi tajribalarini umumlashtirib yaratgan. U oilada boshlangan tabiiylikka mos tarbiyalash keyinchalik maktabda davom ettirilishi kerak deb hisoblaydi. Buyuk rus pedagogi K.D. Ushinskiy (XIX asr) Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholagan «Xalq o'zi yaratgan va Xalq boshlanishlariga asoslagan tarbiya - deb yozadi u abstrakt g'oyalarga asoslangan eng yahshi sistemalarda ham bo'lishi tarbiyaviy kuchga ega» U Xalqchiligi bo'lmagan Xalq - bu qalbsiz tana degan prinsipga chuqur ishongan va bu prinsipga asoslanib, Xalqchilik g'oyasini asoslab bergan. Xalqning odatlari, marosimlar va an'analarini yahshi bilib u «Ajdodlar donashmatligi - avlodlar uchun ko'zgu» degan xulosaga keladi va shuning uchun Xalq tarbiyasini ma'qullaydi, chunki u Xalq rivojlanishi jarayonida tipik namuna hisoblanadi. V.A.Suhomlinskiy Xalq pedagogikasi mohiyatini chuqur o'rganib ma'naviylik g'oyalarini va undan kelib chiqadigan Xalqning pedagogik nuqtaiy nazarini o'rganish zarurligi va muhimligini ta'kidlaydi. U Xalq pedagogikasining boyligi va katta amaliy ahamiyatga ega ekanligiga qaramay uni kerakligicha o'rganilmayapti, bu muamomo buyicha chuqur tekshirishlar olib borilmayapti deb hisoblaydi. Xalq pedagogikasi haqida hali hech kim o'ylamagan va shuning uchun ham bu pedagogikaga katta tashvishlar kyeltirgandir-deb yozadi u Men ishonaman, Xalq pedagogikasi-bu Xalqning ma'naviy hayoti jamlangan markazdir.

Xalq pedagogikasida milliy hususiyatlari Xalq qiyofasi kursatib beriladi. Xalqning xususiyatlari Xalqning qiyofasi, uning hayollari va orzular, ma'naviy goyalari, ayniqsa u yaratgan ertaklarda, dostonlarda, afsona, qissa, eposlar, rivoyat, maqollarida yaqqol nomoyon bo'ladi.

Xalq pedagogikasi masalalari bir qator olimlarning tekshirishlari predmeti bo'lgan, ularning har biri Xalq pedagogikasi nazaryasi va amalyotiga o'zining hissasini qo'shgan G. N. Volkov (XXI asr) Xalq pedagogikasi muammolarini har tomonlama va ancha chuqur o'rgangan olimlardan hisoblanadi. U «Chuvash Xalq pedagogikasi» «Etnopedagogika» monografiyalari (1974) muallifi hisoblanadi. Bu tadqiqotchining asarlari regional chuvash Xalq pedagogikasi chegaralaridan ancha keng olingan, ular Xalq pedagogikasi konsepiyasini umuman shakllanishida xususan tarbiya predmyeti, pedagogik asoslari, metod va vositalarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. G. N. Volkov pedagogik adabiyotlarda birinchi bor «**etnopedagogika**» termini ishlatdi, unib o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash bo'yicha Xalq ommasining tajribasi haqida, ularning pedagogik dunyoqarashlari haqidagi fan turmush pedagogikasi haqidagi fan oila, avlod urug' xalq va millat pedagogikasi haqidagi fan sifatida belgilanadi. Etnik pedagogika tarixiy sharoitlar ta'siri ostida yzaga kelgan, milliy xarakterning xususiyatlarini o'rganadi.

XX asr 70-80 yillari pedagoglari G. N. Volkov kiritgan «etnopedagogika» tushunchasini to'g'ri hisoblaydilar, chunki, Xalq pedagogikasi tajribaga va uning ta'rifiga taalluqli bo'lsa etnopedagogika esa nazariy fikr doirasi fan doirasi bilan bog'liqdir Xalq pedagogikasi bo'yicha ko'plab qiziqarli tekshirishlar o'tkazilgan. Misol uchun N.S.Safarov o'zining «O'zbekistonning Xalq pedagogikasi ilg'or g'oyalar va tajribalari» (1989) nomli monografiyasida o'zbek Xalq tarbiyasi asosiy yo'nalishlarini o'rganib bu jarayonning milliy o'ziga hosliklarni ko'rsatib, undagi o'zbek ko'p bolalik onaning alohida rolini ta'kidlaydi. U hozirgacha sag'lanib qolgan o'zbek oilasining ko'p qatlamliligiga Xalq ta'biyasi g'oyalar va tajribalarini asosiy saqlovchisi va yetaklovchisi bo'lganligini isbotlaydi. Xalq pedagogikasini ma'lum darajada mustaqillik davrida yaratgan kitoblar ham

to'ldirmoqda: Haydarov M, "Etnopedagogika", Minovarov A.K. «Oila pedagogikasi» T. (1994). Musurmonova O Baubekova G «O'zbek Xalq pedagogikasi», T. 2000. Misol uchun Musurmonova O G.Baubyekova , «O'zbek Xalq pedagogikasi», o'quv qo'lanmasida o'zbek Xalq pedagogikasi bo'yicha mustaqillik yillarida birinchi o'quv qo'llanmasi bo'lgan kitoblarda etnopedagogikaning yzaga kelishini, uning predmyeti mazmuni va metodlarini ochib beradilar. Birinchi bor bunday qo'lanmada hadislar asosida hamda o'zbek milliy o'yinlari maqol va matallari xalq qo'shiqlari va ertaklari xususiyatlari o'rganiladi. Mualiflar o'zbek Xalq pedagogikasini mazmunini hozirgi sharoitlarda o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy va barkamol rivojlangan qilib tarbiyalash orqali ochib beradilar.

Xalq pedagogikasining eng muhim amaliy tomoni uning hayot bilan, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish amaliyoti bilan borliqligi hisoblanadi – deb hisoblaydilar. O.Musurmonova va G.Baubekova.

3 Xalq pedagogikasida oila, bolalar va ota-analar muammolari

Xalqning muhabbat, oila, bolalar va ota-onalar haqidagi tasavvurlari ko'p asrlik turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan. Bu tasavvurlar birlashtirilgan va pedagogik o'ylab chiqilgan, amaliyotda, hayotda sinovdan o'tgan xulq qoidalari, maslahatlar, tavsiyalar to'plamida o'z ifodasini topgan, ular xalq pedagogik madaniyati yetukligi va boyligini bildiradi.

Oila – xalq namunasi

Oila va oilaviy munosabatlar pedagogikasi – murakkab jarayondir. Agarda zamonaviy terminalogiyadan foydalanadigan bo'lsak, unda allanimalarni bajarish kerakligiga xalq o'z shaxsiy tajribasida ishonch hosil qilgan deb aytish mumkin.

1. Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish odatlari, an'analari, metodlarini aniqlab *konstruktiv* metodini;
2. Bolalarning dam olishlari, mehnat qilish va o'quv mashg'ulotlari tartibini o'rnatib *tashkilotchilik* vazifasini;
3. Ota-onalar, ota-onalar va bolalar, bolalarning o'zlari o'rtasidagi yaqinlari, qarindoshlar va qo'shnilar va shu kabilar bilan to'g'ri o'zaro munosabatlar qoidalarini ishlab chiqib *kommunikativ* vazifasini;

Bular hammasi asta-sekinlik bilan oilaviy munosabatlar sistemasini yaratadi. Oila eng intim (yaqin) jamoadir. O'zining ko'nglidagi firklarini bola faqat ota-onalariga aytishi mumkin, ayniqsa sirlarini onasiga aytadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar juda nozik va qaltis ishdur, chunki u qarindoshlik iplari bilan bog'langan jamiyatning birinchi jamoasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu yerda oila ichidagi o'zaro munosabatlar amalga oshiriladi, ota va onaning tarbiyachilik vazifalari aniqlanadi. Uning bolalarga pozitiv ta'sirini kuchaytirish uchun sharoitlar yaratiladi. Oilaning va oilaviy tarbiyaning ana shu hamda boshqa xususiyatlari har doim xalqning diqqat markazida bo'lgan.

Bular hammasi Markaziy Osiyo xalqlari xalq pedagogikasi meroslarida o'z aksini topgan.

Xalq ko'plab avlodlar tajribasi asosida oilaning asosini – o'zaro muhabbat tashkil etishiga ishonch hosil qilgan. Shuning uchun shunday umumiy hayotiy fikr paydo bo'lgan: “Sevgisiz oila – bu ildizsiz daraxtdir.” Sevgi muammosi oilaviy tarbiya pedagogikasi uchun har doim muhim bo'lgan. Yigit va qizlar o'rtasidagi yorqin va sof do'stlik odatda oliy, insoniy hissiyot-sevgiga aylanadi. Xalq donishmandligi sevgini har qanday ko'rinishiga katta odob bilan o'z munosabatini bildiradi.

Sevgiga avaylab munosabatga bo'lish - xalq pedagogikasining muhim maslahatidir: "Muhabbatni ko'z qorachig'idek asra". Insonni faqatgina uning tabiiy, tashqi chiroyi uchungina, balki uning ko'ngli go'zalligi uchun ham sevish kerak. "Sevgining chiroyinimi yoki chiroylilarni sevasanmi." – degan savolga qozoq moqoli shunday javob beradi: "Shunchaki go'zal bolgan chiroyni emas, balki sen sevgan chiroylidir". Sevish uchun odamni ko'rish va uni bilish, uni tushunish kerak. "Ko'z ko'rmaganni, yurak sevmagan" deb bekorga aytmaganlar. Tojiklar esa "avval ko'zga yoqishi kerak, keyin esa yurakka" deb hisoblaydilar.

Xalq sevishtganlar xulqlari madaniyati masalasini ham gapirib o'tgan. Bunda sevganining yaqinlari va ota-onalariga hurmat yuzasidan, bo'lajak turmush o'rtog'ining tanloviga munosabatni bildirish uchun ular bilan tanishish ko'zda tutilgan. Ko'pincha maqollarda kuyovga to'g'ri maslahatlar beriladi: hamma ishni ota-onalardan boshlash kerak, ayniqsa qizning onasidan, u qiz bolaning tarbiyasiga, uning dunyoqarashiga, ishonchi, didi, odatlari shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun xalqdashunday maqollar bo: "Onasiga qarab, qiziga uylan", "Bir qizga uylanmoqchi bo'lsang avval uning onasi bilan tanishgin". Shuni aytish muhimki, xalq odatda teng nikohga sevgi bo'yicha nikoh tarafdorlari bo'ladi. Markaziy Osiyoda ko'p davrlar davomida kelin uchun qalin puli to'lash odat bo'lib kelganligiga qaramasdan, odamlar xalq donishmandligiga amal qilishga intilganlar. Teng kuyov topilgan bo'lsa qizni qalin puli talab qilmay berib yubor (qoraqalpoqlar): Agar teng kuyov topilsa qizingni bepul berib yubor (qirg'izlar): xalq manfaatini ko'zlab boshlangan nikohni rad etadi. Boylik uchun turmushga chiqqandan ko'ra o'tgan yaxshiroqdir – deb aytadilar. (o'zbeklar).

Oila jamiyatning boshlang'ch jamoasi bo'lib, hayotning eng murakkab va turli xil xodisalaridan ta'sirlanadi. Turmushda janjallar kelib chiqadi. Xalq oilaviy janjallar haqida nima deb o'ylaydi va oilaviy tarbiya tajribalari bilan qanday oldini olish choralari ishlab chiqilgan. Hikmatli so'zlarga oilaviy janjallar ajoyib bir fikrlik bilan tabiiy, qonuniy hodisa deb qaraladi. O'zbek maqoli to'g'ridan-to'g'ri ta'kidlaydi: "Yeguliksiz uy bo'ladi, lekin janjalsiz uy bo'lmaydi". Xalq oddiy odamlarga "Hatto podshohning uyida ham janjallar bo'ladi" deb o'zini ham va

boshqalarni ham tinchlantiradi. Ba'zi ota-onalari va qo'shnilari er va xotin o'rtasidagi tortishuvga aralashishga urinib ko'radilar. Bu deyarli hech qachon yaxshi natijaga olib kelmaydi, shuning uchun o'zbek maqollarida "Er va xotinni orasiga faqatgina axmoq aralashadi" deb aytishadi. Ko'pchilik haqiqatni so'zlar afsuslanib yomon xotinlarning xislatlarini ko'rsatib beradi. Yomon xotinlar haqida o'zbeklar shunday deydilar: "Ot yomon bo'lsa xohishing ketadi, bolalaring yomon bo'lsa kuning ketadi, xotining yomon bo'lsa-mehmon ketadi". Ko'pchilik haqiqatli so'zlar ayolning eng yomon xislati deb uning ming'ir- ming'irlarini quloqni tinchitmasligi, mijg'ovligi va janjalkashligini ko'rsatadilar: "Janjalkash xotinning eri tez qariydi", "Janjalkash xotinga uylangandan ko'ra bo'ydoq yurgan yaxshi".

Oilaning asosiy vazifasi – katta avlod uchun munosib bolalarni tarbiyalash hisoblanadi. Bu yerda ham hal qiluvchi ish ota-onalarga bog'liq bo'ladi.

Ota va ona birinchi tarbiyachilar.

Xalq pedagogisida onalik oliy ijtimoy qadriyat sifatida, inson avlodini davom ettirishdagi tabiiy talab sifatida qaraladi. Hamma xalqlar xaqli ravishda onani – ayolni yuksaklikka ko'taradilar, "O'g'il agarda kaftida onasi uchun tuxum pishirib berganida ham uning oldida qarzdorligicha qoladi" deb hamma tan olgan.

Bolalarga muhabbat – bu juda muhim muammo hisoblanadi. Chunki, ona muhabbati sababli ota-onalar ko'plab tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadilar. Hamma xalq haqiqatli so'zlarida bolalarga cheksiz muhabbat hissi ifoda etilgan. "Uyning bezagi-bu bekadir, dasturxonning bezagi-mehmon".

Bolaning tarbiyaliligi ham juda qadrlanadi. M: o'zbek maqollarida shunday deyiladi: "Bola qimmatbahodir, lekin yanada ham qimmatlisi uning tarbiyasi". ("Bola aziz, uning odobi undan aziz").

Xalq otalarning shaxsiy ibrat ko'rsatishlariga ko'p e'tibor qaratgan. Onaning yomon odati albatta bolaga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun "janjalkash otaning o'g'li urushqoq bo'ladi", deb aytadilar Ota va onadan tashqari oilada tarbiyachilik vazifani buva va buvisi va boshqa qarindoshlari ham bajaradilar. Amalda ular no'malum halq pedagoglari hisoblanadilar. Xalq donishmandlari opoqilar (buvalar) va buvilar haqida maxsus ertaklar to'qiganlar.

Halq pedagogikasi amalda.

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda milliy an'analar rivojlanadi takomillashadi va boyib boradi. Ana shularning o'zi xalq pedagogikaning amaldagi hayotiyligi ko'rinishidir.

Xalq har doim yosh avlodga Vatanga muhabbatni, halollik, to'g'irlik, kamtarinlikni sighthirishga intiladi. O'zbek oilasining ma'naviy ananalarini o'rganib halq pedagogikasi tadqiqotchilari Munavvarov A.K. Musurmonova O O'zbeklarning tarbiya xalq kodeksi birinchi o'ringa xalqqa, o'z davlatiga xizmat qilishni qo'yadi degan xulosaga keladilar. O'zbeklar bolada halollik, adolatlilik hissini tarbiyalashga juda katta ahamiyat beradilar. Adolatlilik o'zbeklar tomonidan yuksak ma'naviy sifat kabi baholanadi.

Fuqarolik hissi, jonajon Vataniga ixtiyoriy xizmat qilishga intilishi o'zbek xalq pedagogikasida yaqqol ifodasini topgan. Xalq tarbiyachilari ijtimoiy tarbiyaning o'ziga xos shaklini topdilar va o'rnatdilar. O'zbekistonda jamoatchilik tarbiyasi vazifasini mahalla bajaradi. Ularning aholini an'anaviy ravishda jamoatchilik turmushi va jamoatchilik o'zaro yordam qoidalari bilan bo'g'langan. Mahalla o'zining jamoatchilik markaziga ega, unda choyxona, ustaxonalar, masjid, kichkina bozorcha bor. Mahalla jamoatchiligi turar joylarni tartibga keltiradi, hasharlar tashkil etadilar, o'smirlarni tarbiyasiga katta e'tibor berib borib jamoatchilik tartibini kuzatib boradilar. Shuni ta'kidlab aytish zarurki, bu xalq an'analari bugungi kunda demokratik jamiyat qurish shroitida faol qayta tiklandi va o'sib bordi. 2003 yil obod mahaalla shiori ostida o'tdi va bu yili jamoatchilik tarbiya milliy an'analari rivojlanishi uchun ko'plab ishlar qilindi.

Xalq pedagogikasi odatlari, an'analari, prinsiplari amaliy ishlamoqda va zamonaviy shroitlarda ham yosh avlodning shaxsini tarbiyalash va shaklantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalq pedagogikasi an'analari rivojlanmoqda va takomillashmoqda, eski an'analar bilan bir qatorda yangilari paydo bo'lmoqda.

Bizning davrimizda yangi an'analar paydo bo'ldi va mustahkam o'rnatib oldi, masalan, maktabni yoki oliy o'quv yurtini tamomlashligi munosabati bilan

oilaviy tantanalar, balog'at yoshiga yetishi, ota-onalarga birinchi kunda sovg'a berish, umumxalq hasharlarida ishtirok etish va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun T. Sharq 1997 y
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. Sharq 1997 y
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – o'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. O'zbekiston, 1997 y
4. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: Pedagogicheskiye vuzreniya narodov Sredney Azii Kozaxstana – M. Pedagogika, 1991 g
5. OON bolalar xuquqlari konvensiyasi to'g'risida T. 1990 y
6. Quronov M. , Z.Q.Qurbonniyozov Ijtimoiy pedagogika T.TDPU. 2003 y
7. Mudrik A.V. Vvedeniya v sosialnomu pedagogiku M.1997 y
8. Mudrik A.V. Sosialnaya pedagogika M. "Akodem" 2002 y
9. Munavvarova A.N. "Olia pedagogikasi" T., 1994 y.